



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60410600 – Bank ishi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60410600 – Bank ishi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)


EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ZIKRIYAYEV ZOKIR MAMIROVICH

Renessans ta'lim universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: MATTHEW HOLLOW

University of York

fan doktori (DSc), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260128
Xulosa raqami	1592
Xulosa sanasi	15.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"XALQARO NORDIK UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Chust ko'chasi, 17-uy. Litsenziya: № 1569217, 08.08.2022. Guvohnoma: MAS № 0000409, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Bank ishi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60410600
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1569217, 08.08.2022
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60410600 – Bank ishi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60410600 – Banking
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60410600 – Банковское дело
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, ingliz, rus
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat tomonidan tan olinadigan diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	300 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Chust ko'chasi, 17-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Mazkur bobda ta'lim dasturini boshqarishning tashkiliy asoslari, ichki sifatni ta'minlash tizimi hamda rivojlantirish mexanizmlarining holati baholandi. O'zini o'zi baholash hisoboti, tasdiqlovchi hujjatlar va taqdim etilgan qo'shimcha ma'lumotlar kompleks o'rganilib, dastlabki ekspertiza jarayonida istiqbolli rivojlantirish rejasi, kafedra faoliyatini tartibga soluvchi ayrim hujjatlar, xalqaro hamkorlikni rejalashtirish hamda mehnat bozori monitoringiga oid ma'lumotlarni aniqlashtirish zarurligi qayd etilgani inobatga olindi. Keyingi uchrashuvlar va so'rovlar natijasida taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlar ta'lim dasturini boshqarish, ichki sifatni ta'minlash hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlashga xizmat qiluvchi zarur mexanizmlar amaliyotga joriy etilganini tasdiqladi. Shu bilan birga, istiqbolli rivojlantirish rejasiga oid 1.2-mezon qisman muvofiq deb baholandi, chunki ayrim rejalashtirish hujjatlarida amalga oshirish muddatlari, mas'ul ijrochilar hamda natijadorlikni baholash ko'rsatkichlari yetarli darajada aniq ifodalanmagan. Mazkur holatni bartaraf etish maqsadida istiqbolli rivojlantirish rejasini aniq muddatlar, mas'ul ijrochilar va o'lchanadigan natijadorlik ko'rsatkichlari bilan takomillashtirish tavsiya etildi. Qolgan mezonlar bo'yicha ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya talablari va sifat mezonlariga muvofiq tashkil etilgani e'tirof etildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Mazkur bobda ta'lim dasturining mazmuni, uni ishlab chiqish va takomillashtirish tartibi hamda amaldagi me'yoriy talablar bilan muvofiqligi baholandi. O'rganilgan hujjatlar ta'lim dasturini ishlab chiqish va muntazam takomillashtirish belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilishini, ushbu jarayonda ish beruvchilar va soha vakillarining faol ishtiroki ta'minlanganini tasdiqladi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda bitiruvchilarda shakllantirilishi ko'zda tutilgan

kasbiy kompetensiyalar davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi va bank-moliya sohasi ehtiyojlariga mos ravishda belgilangan bo'lib, dastur kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida hamda uch tilda amalga oshirilishi ta'lim oluvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratishi e'tirof etildi. Bank ishi yo'nalishining zamonaviy rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib, raqamli bank xizmatlari, risk-menejment va moliyaviy texnologiyalar bilan bog'liq kompetensiyalarni mehnat bozori talablari bilan uzviy uyg'unlashtirish bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari ta'lim dasturi mazmunining belgilangan akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga muvofiq shakllantirilganini tasdiqladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Mazkur bobda o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari, fan dasturlari hamda talabalar bilimini baholash tizimining amaldagi holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar o'quv reja va fan dasturlari amaldagi davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilganini, o'quv jarayoni esa ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilganini tasdiqladi. Talabalar bilimini baholash mezonlarining shaffofligi ta'minlangani, qayta aloqa va apellyatsiya tartiblari belgilanganligi, shuningdek akademik halollik tamoyillarini qo'llashga oid amaliy mexanizmlar izchil joriy etilgani e'tirof etildi. Bank ishi yo'nalishining amaliy xususiyatidan kelib chiqib, amaliy bank operatsiyalarini modellashtirishga asoslangan topshiriqlarni baholash tizimiga keng joriy etish talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va mehnat bozori talablariga mos ko'nikmalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlari mazkur yo'nalishda o'quv jarayoni va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilganini o'z tasdig'ini topdi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Mazkur bobda talabalarni o'qishga qabul qilish, talabalar kontingenti harakatini boshqarish hamda ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar va qo'shimcha taqdim etilgan materiallar qabul jarayonlarining tashkiliy jihatlar hamda qabul parametrlarini asoslovchi ma'lumotlar yuzasidan dastlab bildirilgan aniqlashtirishlar to'liq bartaraf etilganini, talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi belgilangan talablarga javob berishini tasdiqladi. Qabul jarayonlarining shaffofligi ta'minlangani, talabalar harakatini boshqarish, ularni

ko'chirish, qayta tiklash, akademik ta'til berish hamda akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartiblari amaldagi me'yoriy talablar asosida yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Bank ishi yo'nalishining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, qabul parametrlarini mavjud moddiy-texnik, axborot va kadrlar resurslari bilan muvozanatlashtirish amaliyotini muntazam hujjatlashtirib borish ta'lim sifati kafolatini yanada mustahkamlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari talabalar faoliyatini tashkil etish akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiq yo'lga qo'yilganini tasdiqladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Mazkur bobda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun shakllantirilgan inson resurslari salohiyati, professor-o'qituvchilar tarkibi hamda kadrlarni rivojlantirish tizimining holati baholandi. Taqdim etilgan ma'lumotlar professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning ilmiy salohiyati va istiqboldagi kadrlar rejasi ta'lim dasturi ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirilganini, inson resurslari yo'nalishi belgilangan talablarga javob berishini tasdiqladi. Professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi o'qitilayotgan fanlar mazmuniga mosligi, malaka oshirish va moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish tizimining izchil faoliyat yuritayotgani, shuningdek ta'lim dasturini zarur kompetensiyaga ega kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilayotgani kuzatildi. Bank ishi yo'nalishining amaliy xususiyatidan kelib chiqib, bank va moliya sektorida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi mutaxassislarni o'quv mashg'ulotlariga kengroq jalb etish nazariy tayyorgarlikni real sektor tajribasi bilan uyg'unlashtirish hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha mavjud kadrlar salohiyati ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur talablarni ta'minlayotgani e'tirof etildi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Mazkur bobda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik baza, o'quv-uslubiy ta'minot, inklyuziv ta'lim muhiti hamda raqamli infratuzilmaning holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar auditoriyalar, kompyuter sinflari, Axborot-resurs markazi, elektron ta'lim resurslari va boshqa infratuzilma obyektlari ta'lim dasturi ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirilganini hamda belgilangan talablarni qanoatlantirishini tasdiqladi. Talabalar uchun zarur o'quv-uslubiy materiallar va elektron resurslardan foydalanish imkoniyati yaratilgani, inklyuziv ta'lim muhiti va

raqamli ta'lim infratuzilmasining samarali faoliyat yuritayotgani ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishiga xizmat qilayotgani kuzatildi. Bank ishi yo'nalishining amaliy xususiyatidan kelib chiqib, amaliy bank operatsiyalarini modellashtirishga xizmat qiluvchi trening vositalari va zamonaviy o'quv texnologiyalarini bosqichma-bosqich kengaytirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash hamda o'quv sifatini yanada oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha moddiy-texnik ta'minot tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiqligi qayd etildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Istiqbolli rivojlantirish rejasidagi ayrim hujjatlarda muddatlar, mas'ul ijrochilar va natijadorlik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq ifodalanmagan (1.2-mezon qisman muvofiq deb baholangan).
- ✓ Xalqaro hamkorlikni rejalashtirish hujjatlari to'liq shakllantirilmagan.
- ✓ Mehnat bozori monitoringi natijalarini hujjatlashtirish tizimini kuchaytirish zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Istiqbolli rejani aniq muddatlar, mas'ul ijrochilar va o'lchanadigan natijadorlik ko'rsatkichlari bilan mustahkamlash.
- ✓ Xalqaro hamkorlik rejasini rasmiy hujjatlashtirib, ijrosini monitoring qilib borish.
- ✓ Mehnat bozori monitoringi natijalarini dastur mazmunini yangilashga bog'lovchi tartibni joriy etish.
- ✓ Amaliyotchi bank mutaxassislarini o'quv jarayoniga jalb etishni kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Xalqaro Nordik universitetida 60410600 – “Bank ishi” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, boshqaruv tizimi, inson resurslari hamda moddiy-texnik infratuzilmaning holati kompleks ravishda baholandi. O'rganish davomida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani, dastur davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq

ishlab chiqilgani, o'quv jarayonida shaffof baholash tizimi va akademik halollik tamoyillarining izchil joriy etilgani o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan tartiblar asosida tashkil etilgani, professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi ta'lim dasturi talablariga mosligi hamda bank amaliyoti uchun zarur o'quv-trening vositalari, axborot resurslari va raqamli infratuzilmaning mavjudligi ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun yetarli sharoitlar yaratilganini tasdiqladi. Baholash yakunlariga ko'ra, akkreditatsiya mezonlari bo'yicha ko'rib chiqilgan 27 ta mezondan 26 tasi muvofiq, 1.2-mezon esa qisman muvofiq deb baholandi. Mazkur mezon bo'yicha bildirilgan tavsiya istiqbolli rivojlantirish rejasini aniq muddatlar, mas'ul ijrochilar hamda o'lchanadigan natijadorlik ko'rsatkichlari bilan yanada takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ushbu holat ta'lim dasturining umumiy sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari 60410600 – “Bank ishi” bakalavriat ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga mos ravishda amalga oshirilayotganini hamda ta'lim dasturining umumiy holati ijobiy baholanishini tasdiqlaydi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

